

**JADID MA'RIFATPARVARLARI G'OYALARINING ZAMONAVIY
TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDAGI O'RNI****Nabiyeva Vazira Bahodir qizi**

Guliston davlat pedagogika instituti

Ma'naviyat asoslari yo'nalishi magistranti.

Email: vnabiyeva23@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.18245020>

Annotatsiya. Ushbu maqolada jadid ma'rifatparvarlari g'oyalarining zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'rni pedagogik va ijtimoiy-gumanitar yondashuv asosida tahlil qilinadi.

XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda shakllangan jadidchilik harakati ta'limni jamiyat taraqqiyoti va madaniy yangilanishning asosiy omili sifatida talqin etgan islohotchi intellektual harakat sifatida namoyon bo'lgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi jadid pedagogik qarashlarining zamonaviy ta'lim konsepsiyalari bilan uyg'unligini aniqlash, ularning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini ochib berish hamda bugungi ta'lim tizimidagi aksini tahlil qilishdan iborat.

Maqolada tarixiy-pedagogik manbalar va zamonaviy ta'lim nazariyalarini tahlil qilishga asoslangan sifatli, analitik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotda jadid g'oyalarining shaxsga yo'naltirilgan, konstruktivistik hamda kompetensiyaga asoslangan ta'lim modellariga mosligi alohida e'tiborga olindi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, jadid ma'rifatparvarlari tomonidan ilgari surilgan tanqidiy fikrlash, mantiqiy mushohada, o'quv dasturlarini modernizatsiya qilish va yodlashga asoslangan ta'limni inkor etish g'oyalari zamonaviy ta'lim paradigmalari bilan uzviy bog'liqdir.

Kalit so'zlar: jadidchilik, ta'lim islohotlari, pedagogik tafakkur, yoshlar tarbiyasi, ijtimoiy-gumanitar fanlar.

Abstract. This article analyzes the role of Jadid enlighteners' ideas in the contemporary educational and upbringing process from pedagogical and social-humanitarian perspectives.

The Jadid movement, which emerged in Central Asia at the beginning of the twentieth century, represented a reformist intellectual initiative that conceptualized education as a key factor in social development and cultural renewal. The main objective of the study is to examine the compatibility of Jadid pedagogical views with modern educational concepts, to reveal their significance in youth education, and to analyze their reflection in present-day education systems.

The study employs a qualitative and analytical approach based on the examination of historical-pedagogical sources and contemporary educational theories. Particular attention is given to the alignment of Jadid ideas with learner-centered, constructivist, and competency-based education models. The findings demonstrate that the principles promoted by Jadid enlighteners—such as the development of critical thinking, rational reflection, curriculum modernization, and the rejection of rote memorization—are closely connected with contemporary educational paradigms.

Keywords: Jadidism, educational reforms, pedagogical thought, youth education, social-humanitarian studies.

Kirish

Ta'lim jamiyatning muhim ijtimoiy instituti sifatida intellektual rivojlanish, madaniy uzviylik va ijtimoiy taraqqiyotni belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Jamiyatda tub ijtimoiy-siyosiy va madaniy o'zgarishlar yuz berayotgan davrlarda ta'lim g'oyalari va amaliyoti islohotlarning markaziy maydoniga aylanadi.

XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda yuzaga kelgan jadidchilik harakati ana shunday tarixiy jarayonlarning mahsuli bo'lib, ta'limni jamiyatni yangilash va rivojlantirishning asosiy vositasi sifatida ilgari surdi.

Jadid ma'rifatparvarlari ta'limni faqat bilim berish jarayoni sifatida emas, balki shaxsda tanqidiy fikrlash, ijtimoiy mas'uliyat va madaniy ongni shakllantiruvchi murakkab tizim sifatida talqin etdilar. Bugungi globalashuv, tezkor texnologik taraqqiyot va ijtimoiy qadriyatlarning o'zgarishi sharoitida ta'lim tizimi ham murakkab vazifalar bilan yuzma-yuz kelmoqda. Shu nuqtayi nazardan, jadid pedagogik g'oyalarini qayta tahlil qilish va ularni zamonaviy ta'lim nazariyalari bilan qiyoslash dolzarb ilmiy masala hisoblanadi. Mazkur tadqiqot jadid ma'rifatparvarlari g'oyalarining zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'rnini pedagogik va ijtimoiy-gumanitar yondashuv asosida o'rganishga qaratilgan.

Metodologiya

Metodologik asos sifatida pedagogik va ijtimoiy-gumanitar yondashuvlar tanlandi.

Tadqiqot jarayonida hujjat va matnlarni tahlil qilish metodi asosiy usul sifatida qo'llanildi. Jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik asarlari, maqolalari, darsliklari hamda zamonaviy pedagogik nazariya bo'yicha ilmiy adabiyotlar tizimli ravishda o'rganildi.

Shuningdek, tarixiy-pedagogik yondashuv jadid g'oyalarining vujudga kelish sharoitini ochib berish hamda ularni zamonaviy ta'lim konsepsiyalari bilan qiyosiy tahlil qilish imkonini berdi. Tematik tahlil usuli orqali ta'limni modernizatsiya qilish, tanqidiy fikrlash, axloqiy tarbiya va ijtimoiy mas'uliyat kabi asosiy mavzular aniqlanib, tizimlashtirildi.

Natijalar va muhokama

Tadqiqot natijalari jadid ma'rifatparvarlari g'oyalari zamonaviy pedagogik konsepsiyalar bilan yuqori darajada uyg'un ekanini ko'rsatdi. Jadidlar tomonidan ilgari surilgan passiv, yodlashga asoslangan ta'limni inkor etish g'oyasi bugungi konstruktivistik va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim modellari bilan mos keladi. O'quvchining faol subyekt sifatida shakllanishi, mustaqil fikrlash va bilimni amaliyot bilan bog'lash masalalari jadid pedagogikasining muhim jihatlaridan hisoblanadi.

Jadidchilik harakati XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda shakllangan ijtimoiy-ma'rifiy hodisa bo'lib, u jamiyatni isloh qilishda ta'lim va tarbiyani hal qiluvchi omil sifatida talqin etgan. Jadid ma'rifatparvarlari mavjud an'anaviy ta'lim tizimini tanqidiy baholab, uni zamon talablariga mos ravishda yangilash zaruratini ilgari surdilar. Ushbu yondashuv ta'limni faqat diniy bilimlar bilan cheklab qo'ymasdan, dunyoviy fanlar, ijtimoiy bilimlar va amaliy ko'nikmalar bilan boyitishni ko'zda tutgan.

Jadid pedagogik tafakkurining asosiy xususiyatlaridan biri ta'lim va tarbiyaning uzviyligini ta'kidlashdir. Jadidlar nazarida ta'lim shaxsni bilim bilan qurollantirsa, tarbiya uni jamiyat uchun foydali, mas'uliyatli va ongli subyekt sifatida shakllantiradi. Ushbu qarash zamonaviy pedagogik yondashuvlarda ham muhim o'rin tutadi, chunki bugungi ta'lim tizimi intellektual rivojlanish bilan bir qatorda ijtimoiy va axloqiy kompetensiyalarni shakllantirishni maqsad qilib qo'yadi.

Jadid ma'rifatparvarlari o'qitish jarayonida tushunishga asoslangan, faol va muloqotga yo'naltirilgan metodlarni ilgari surdilar. Bu yondashuv an'anaviy yodlashga asoslangan ta'limdan farqli ravishda o'quvchining fikrlash faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan edi. Mazkur tamoyil bugungi kunda shaxsga yo'naltirilgan, interaktiv va kompetensiyaviy ta'lim modellarida o'z ifodasini topmoqda. Shuningdek, jadid pedagogikasida ta'limning ijtimoiy vazifasi alohida ta'kidlangan.

Jadidlar ta'limni jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish, milliy ongni shakllantirish va taraqqiyotga xizmat qiluvchi kuch sifatida ko'rganlar.

Zamonaviy ta'lim siyosatida ham ta'limning ijtimoiy adolatni ta'minlash, faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish va jamiyat barqarorligiga hissa qo'shish vazifalari dolzarb hisoblanadi.

Jadid ma'rifatparvarlari g'oyalarining yana bir muhim jihati — an'anaviy madaniyat va zamonaviy bilimlar o'rtasida muvozanatni saqlashga intilishdir. Ular milliy qadriyatlarni inkor etmagan holda, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini ta'lim tizimiga joriy etish tarafdori bo'lganlar.

Ushbu yondashuv bugungi globallashuv sharoitida ta'limning milliy va universal jihatlarini uyg'unlashtirish masalasida muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, jadid ma'rifatparvarlari pedagogik merosi zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonini boyituvchi tarixiy-nazariy resurs sifatida baholanishi mumkin. Ularning g'oyalari bugungi ta'lim tizimi uchun tayyor model bo'lib xizmat qilmasa-da, ta'limni modernizatsiya qilish, uning mazmuni va maqsadlarini qayta ko'rib chiqishda muhim metodologik va g'oyaviy manba sifatida ahamiyatga ega.

Quyida berilgan jadvalda jadid ma'rifatparvarlari tomonidan ilgari surilgan asosiy pedagogik g'oyalar, ularning mazmuni hamda zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonida aks etish shakllari tizimli ravishda ko'rsatib berilgan. Jadvaldan ko'rinadiki, jadid pedagogik qarashlari tarixiy sharoitda shakllangan bo'lsa-da, ularning konseptual asoslari bugungi ta'lim tizimi uchun ham dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Jadid ma'rifatparvarlari g'oyalari	Mazmuni	Zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonidagi aks etishi
Ta'limni modernizatsiya qilish g'oyasi	Ta'lim mazmunini zamon talablariga moslashtirish, dunyoviy fanlarni o'quv jarayoniga joriy etish	O'quv dasturlarini yangilash, kompetensiyaga asoslangan va fanlararo yondashuvlarni qo'llash
Ongli va tushunishga asoslangan ta'lim	Yodlashga emas, balki mantiqiy fikrlash va tahlilga tayangan o'qitish	Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, interaktiv metodlar, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish
Ta'lim va tarbiyaning uzviyligi	Bilim berish bilan birga axloqiy va ijtimoiy tarbiyani uyg'un olib borish	Tarbiyaviy komponentning kuchayishi, ijtimoiy va fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish
Ta'limning ijtimoiy vazifasi	Ta'lim orqali jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shadigan shaxsni shakllantirish	Ta'limning ijtimoiy mas'uliyat va fuqarolik tarbiyasiga yo'naltirilishi
Milliy va zamonaviy qadriyatlar uyg'unligi	An'anaviy madaniyatni saqlagan holda zamonaviy bilimlarni egallash	Milliy kontekstga moslashtirilgan ta'lim, madaniy sezgir pedagogika

Mazkur jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, jadid ma'rifatparvarlari g'oyalari zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonida bevosita emas, balki konseptual va metodologik asoslar orqali davom etmoqda. Bu esa jadid pedagogik merosini tarixiy-nazariy resurs sifatida o'rganish va undan zamonaviy ta'lim islohotlarida foydalanish imkoniyatlarini asoslab beradi. Tadqiqot natijalari jadid ma'rifatparvarlari pedagogik qarashlarining zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayoni bilan mazmunan mos kelishini ko'rsatsa-da, ushbu moslik masalasi ilmiy adabiyotlarda bir xil talqin etilmaydi.

Ayrim tadqiqotchilar jadid pedagogikasini zamonaviy ta'lim konsepsiyalarining bevosita tarixiy asosi sifatida baholagan bo'lsa, boshqalar bu qarashlarni faqat tarixiy-ma'rifiy hodisa doirasida cheklashga moyildir. Shu bois jadid merosining bugungi ta'lim jarayonidagi o'rni masalasi muhokamali xarakter kasb etadi.

M. Sodiqova jadidlarning pedagogik qarashlarini shaxsga yo'naltirilgan ta'limning dastlabki shakllari sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, jadidlar tomonidan ilgari surilgan ongli o'qitish, tushunishga asoslangan ta'lim va o'quvchining faolligini oshirish g'oyalari bugungi pedagogik paradigmalarga metodologik jihatdan yaqin turadi. Biroq mazkur yondashuvga tanqidiy yondashgan holda aytish mumkinki, jadid pedagogikasini to'liq zamonaviy konstruktivistik ta'lim bilan tenglashtirish tarixiy kontekstni soddalashtirish xavfini tug'diradi.

Jadidlar faoliyati asosan ma'rifiy islohot bosqichida shakllangan bo'lib, ularning ta'lim modeli institutsional jihatdan bugungi tizimlardan farq qiladi.

Q. Usmonov jadidchilikni milliy ongini uyg'otishga qaratilgan ijtimoiy harakat sifatida baholab, ta'lim uning markaziy vositasi bo'lganini ta'kidlaydi. Ushbu fikr jadid pedagogikasining tarbiyaviy jihatini kuchli deb baholash imkonini beradi. Biroq zamonaviy ta'lim tizimida ta'limning mafkuraviy yuklamasi masalasi murakkab va bahsli hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, jadid g'oyalarini yoshlar tarbiyasiga tatbiq etishda ularni bevosita ideallashtirish emas, balki tanqidiy saralash muhim ahamiyat kasb etadi.

A. Rajabov jadidlarning milliy qadriyatlarni shakllantirishga qaratilgan ta'limiy g'oyalarini ijobiy baholaydi va ularni globallashtirish sharoitida muhim deb hisoblaydi. Biroq mazkur yondashuv ham muayyan savollarni keltirib chiqaradi: zamonaviy ta'limda milliylik va universallik o'rtasidagi muvozanat qanday ta'minlanadi? Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, jadid pedagogikasining kuchli jihati aynan an'anaviy va zamonaviy bilimlarni uyg'unlashtirishga intilishida namoyon bo'ladi, ammo bu uyg'unlik bugungi ta'lim sharoitida qayta talqin etilishini talab qiladi.

B. Hasanov jadid pedagogikasini zamonaviy ta'lim islohotlari bilan uzviy bog'lash tarafdori bo'lib, jadid g'oyalarini tarixiy tajriba sifatida emas, balki nazariy resurs sifatida ko'rishni taklif etadi. Ushbu pozitsiya tadqiqot natijalari bilan qisman mos keladi. Biroq muallif pozitsiyasiga ko'ra, jadid pedagogikasini zamonaviy ta'limning to'liq modeli sifatida emas, balki konseptual manba sifatida talqin qilish ilmiy jihatdan asosliroqdir.

G. Bobomurodova tomonidan ilgari surilgan insonparvarlik tamoyillari haqidagi qarashlar esa jadid pedagogikasining eng barqaror va zamonaviy jihatlaridan biri sifatida baholanishi mumkin. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, shaxsni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan yondashuv jadid pedagogikasini bugungi kompetensiyaviy va holistik ta'lim modellariga yaqinlashtiradi. Bu jihat jadid merosining zamonaviy ta'lim tizimida qayta o'rganilishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Bahsli xulosalar

- Jadid pedagogikasini zamonaviy ta'lim konsepsiyalarining to'g'ridan-to'g'ri tarixiy asosi sifatida talqin qilish ilmiy bahslarni keltirib chiqaradi;
- Jadid g'oyalarining bugungi ta'lim tizimidagi o'rni ularni tanqidiy va kontekstual tahlil qilish orqali aniqlanishi lozim;
- O'zbek olimlari qarashlari jadid merosining nazariy salohiyatini tasdiqlaydi, biroq uni amaliy tatbiq etishda ehtiyotkorlik talab etiladi;
- Jadid pedagogikasi zamonaviy ta'lim uchun tayyor model emas, balki konseptual va metodologik ilhom manbai sifatida qaralishi maqsadga muvofiq.

Yoshlar tarbiyasida jadid merosi intellektual rivojlanish bilan bir qatorda axloqiy va fuqarolik ongini shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim manba sifatida namoyon bo'ladi.

Zamonaviy ta'lim tizimida esa bu g'oyalar innovatsion metodlar, kompetensiyaga asoslangan o'quv dasturlari va tarbiyaviy yondashuvlarda bilvosita aks etmoqda.

Xulosa

Mazkur tadqiqot jadid ma'rifatparvarlari tomonidan ilgari surilgan pedagogik g'oyalarning zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'rni va ahamiyatini pedagogik hamda ijtimoiy-gumanitar yondashuv asosida tahlil qilishga bag'ishlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, jadidchilik harakati doirasida shakllangan ta'limga oid qarashlar tarixiy hodisa sifatida baholanishi bilan birga, bugungi ta'lim tizimi uchun muhim nazariy va metodologik manba sifatida ham ahamiyat kasb etadi.

Jadid ma'rifatparvarlari ta'limni jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida talqin qilib, uni shaxsning intellektual rivoji, axloqiy kamoloti va ijtimoiy faolligi bilan uzviy bog'laganlar.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ularning tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, ta'lim mazmunini modernizatsiya qilish, o'quvchini faol subyekt sifatida shakllantirishga qaratilgan g'oyalari zamonaviy pedagogik konsepsiyalar bilan mazmunan uyg'un hisoblanadi. Shu bilan birga, jadid pedagogikasi zamonaviy ta'lim uchun tayyor model emas, balki konseptual va g'oyaviy ilhom manbai sifatida qaralishi maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot natijalari shuni ham ko'rsatadiki, jadid merosining yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati ayniqsa dolzarb bo'lib, u shaxsda ijtimoiy mas'uliyat, fuqarolik ongini shakllantirish va madaniy uzviylikni ta'minlashga xizmat qiladi. O'zbek olimlari tomonidan bildirilgan fikrlar tahlili jadid pedagogikasining zamonaviy ta'lim jarayoniga bevosita emas, balki bilvosita, metodologik va qadriyatlar tizimi orqali singib borayotganini tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, jadid ma'rifatparvarlari pedagogik merosini tanqidiy va kontekstual yondashuv asosida o'rganish zamonaviy ta'lim islohotlari uchun muhim nazariy asos yaratadi. Ushbu merosdan oqilona foydalanish ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, yoshlar tarbiyasida ijtimoiy va axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Sodiqova M. O'zbekiston jadidlarining pedagogik merosi. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2020. – 185 b.
2. Usmonov Q. Jadidchilik harakati va uning o'zbek ma'naviyatidagi o'rni. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2017. – 198 b.
3. Rajabov A. Jadidlar ta'lim tizimida milliy qadriyatlarni shakllantirish g'oyalari. – Toshkent: Innovatsiya, 2019. – 165 b.
4. Hasanov B. Jadid pedagogikasi: tarix va zamon talabi. – Toshkent: TDPU, 2018. – 152 b.
5. Bobomurodova G. Jadid pedagogikasida insonparvarlik tamoyillari. – Toshkent: Fan, 2021. – 173 b.
6. Rasulov S. Jadidlar merosining zamonaviy ta'limdagi o'rni. – Toshkent: Innovatsion ta'lim, 2022. – 205 b.
7. Mahmudov A. XX asr boshidagi o'zbek jadidlarining ijtimoiy-siyosiy qarashlari. – Toshkent: Universitet, 2010. – 230 b.
8. Islomov B. Jadidlar va ta'lim islohotlari: tarixiy tahlil. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 192 b.